

“Avestoda”da oila va unda ayolning tutgan o’rni

Saidov Javohir Olimjon o’g’li

Jizzax davlat pedagogika instituti

Tarix va uni o’qitish metodikasi kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” da oila masalasiga jiddiy e’tibor berilganligi, jamiyat va oiladagi ayollarning tutgan o’rni masalalari tarixiy ildizlari xususida muallifning fikr va mulohazalari o’rin olgan.

Kalit so’zlar: Avesto, Oila, Ayol, jamiyat, Ashovan, Axuramazda, Daena, Sovasri.

Tarix fani ibtidoiy davrni o’rganishda mazkur davrdagi xotin – qizlarga munosabat, ularni jamiyat hayotida egallagan mavqelari ijtimoiy faolliklarini ta’minlovchi omillar: mintaqaviy tabiiy muhit, mehnat turlari, oilaning jamiyatdagi o’rni masalasiga alohida e’tibor qaratadi.

Ma’lumki jamiyat a’zolarining yarmini tashkil qiladigan xotin – qizlar barcha zamonlarda moddiy va ma’naviy ne’matlarni yaratishda erkaklar bilan bab – barobar mehnat qilib kelganlar. Bashariyat tarixi zarvaraqlarida ayol zakovati – yu jasorati, karomati – yu matonati borasida juda ko’plab misollar keltirilgan. Shuning uchun ham hamma ma’naviyati yuksak yurtlarda ayollar oilaning tarbiyachisi – ona, elning teng huquqli a’zosi sifatida e’zozlangan, huquqlari doimo himoya qilingan.

Ko’hna Sharq tarixi haqida ma’lumot beruvchi eng qadimiy manbalardan biri bo’lgan “Avesto” da ham oila, uning o’rni, unda ayollarning huquq va burchlari, xotin – qizlarning jamiyatda tutgan o’rni, onalarning oiladagi mavqeyi kabi masalalarga to’xtalib o’tilgan. Bu be’jiz emas albatta chunki xotin – qizlar kelajak avlodni dunyoga keltiruvchi va uni tarbiya etuvchi mo’tabar zotlar hisoblanishadi. Shuning uchun ham Zardushtiylik dinida qiz bolaning tarbiyasiga, hunar egallashiga alohida e’tibor qaratilgan. Zardushtiylik ta’limotiga ko’ra har bir ota – ona o’z qizini balog’at yoshiga yetguncha o’z zamonasining barcha hunarlarini bilishini taminlashi, mol boqish-u ro’zg’or tutishni mukammal

o'rgatish, e'tiqodda bosiq, pokiza qilib tarbiyalashi zarur qilib belgilangan¹. Bu jihatlar birinchidan qiz bolani saramjomlik, pokizalik va isrofgarchiliksiz hayot kechirishini ta'minlasa, boshqa jihatdan yangi hayotda qiynalmasligini va o'sha joy odamlarini mehrini qozonishiga ko'maklashadi.

Buning uchun qiz bola ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan barkamol bo'lmog'i zarur. Bunda shubhasizki onaning roli va mavqeyi ancha yuksakdir².

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" da baxtli makon haqida so'z yuritiladi. Zardusht Axuramazdadan dunyodagi eng baxtli joyni so'raganida u "Bunday joy bir Ashovan uy tiklagan makondir. O'sha makonda mo'bad ro'zg'or tebratadi. Uy bekasi, farzandlar, sigirlar galasi va suruvlar yashaydi. Bu uyda sigirlar galasi yaxshi parvarish etiladi. Uy bekasi baxtiyor, farzandlar shodmon. Hamisha olov gurillab turadi"³ deb javob beradi. Yuqoridagi jumladan ham ko'rinib turibdiki, ayol o'zini baxtli sezgan makon dunyodagi eng baxtli makondir. Ayol o'zini sevimli yori va bolalari davrasida baxtli bo'lishini hisobga olsak shubhasiz eng baxtli joy bu - oila hisoblanadi.

Xotin – qizlar jamiyatda erkaklar bilan teng hurmat e'tiborda bo'lish bilan bir qatorda ular bilan bir safda ta'lim tarbiya olishadi. Biz buni hatto Zardushtiylikda Oliy Tangri Axura – Mazdaga qilingan iltijo va murojaatlarda ham ko'ramiz: "Axura – Mazda yaratgan yaxshilik g'oyasiga, sog'lom, aql – xushi tetik farzandlarga, uzoqni ko'ra biladigan, jasur, dono, turli tillarni biladigan o'g'il – qizlarga olqishlar bo'lsin!"⁴.

Yigit – qizlarning oila qurishi doimo jamoa, ota – ona izmida bo'lgan. Ular agar kattalarning roziligini olmay turmush qurishsa, butun jamoa oldida merosdan mahrum etilganliklari e'lon qilingan. Oila qurishda yigit tomon har doim biror hunar biladigan, uy – ro'zg'or sirlaridan xabari bo'lgan va albatta nasli toza qizlarni kelinlikka tanlashgan. Agarda yer yuzida inson zurriyotining ko'payishiga

¹Xomidiy.X. Avestodan shohnomagacha. T.: 2007, 109-bet.

² o'sha manba 110-bet.

³ Avesto.(A.Maxkam tarjimasi) – T.: Sharq. 2001, 113-bet

⁴ Boboyev X. Xasanov S. "Avesto – ma'navyatimiz sarchashmasi. T.: 2001. 104-bet.

qarshi chiqib, turmush qurmay yurgan qiz bo'lsa, u qopga solinib, 25 qamchin kaltaklangan⁵.

Ayollarning jamiyatda va oilada tutgan o'rnini benihoya kattadir. Uning jamiyatda, oilada va insoniyat tarixida tutgan o'rniga berilgan eng adolatli baho quyidagi fikrdir balki: "Dastlabki kundayoq Axuramazda ayollarga buyurdi: ey ayol! Seni e'tiqodli va pahlavon erkaklarni vujudga keltirib, mehr to'la og'ushingda parvarish et, deb yaratdim toki ular nodurustlik va nopoklik ildizini yer yuzidan yo'qotsinlar⁶".

"Avesto"da shu jihati e'tiborliki ayollar nomi ham ramziy, ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan inson vafot etgandan so'ng ruhni go'zal qiz Daena olib ketadi⁷. Bundan tashqari yodgorlik matnida xotinlar "Rita Siyabonu" yoki "Oshabonu" deb yuritilib buning ma'nosi quydagichadir "poklik va rostlik nuri"dir. Bu jihatdan ko'rinib turibdiki ayollar poklik va haqiqat ramzi hisoblanishgan va buni amalda namoyon ham etishgan. Bundan tashqari "Avesto"da singil so'zi "Sovasri" tarzida berilgan bo'lib, "Muqaddas va hayrihox" ma'nosini anglatgan.

Oilada ayol farzand tarbiyachisi bo'lishi bilan birga mehribon rafiq hamdir. Jamiyatimizda esa ayollar olim, shoira, murabbiy, ijodkor, tadbirkor, mohir boshqaruvchi kabi ma'sulyatli ishlarda erkaklar bilan bir qatorda samarali mehnat qilib kelmoqdalar. Darhaqiqat ayolga bo'lgan munosabatni birinchi o'ringa qo'yish, ayolning hurmat – izzatini joyiga qo'yish, uning mavqeyini yanada yuksaklarga ko'tarish davr talabidir.

Yuqorida takidlangan fikr muloxazalardan shunday xulosa qilish mumkinki, hozirgi kunda jamiyat yuksalgan sari tariximizga, milliy qadriyatlarimizga e'tibor juda kuchayib bormoqda. Mana shunday milliy qadriyatlarimizdan biri ayolga munosabat masalasidir. Bu masala eng dolzarb masala bo'lib, jamiyatimiz taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Chunki oila ayol bilan farovon, tinch, mustahkamdir. Oila tinch bo'lsa jamiyatimiz, butun davlatimiz yurtimiz tinchdir. Oila bilan

⁵ Xomidov X. "Shohnoma"ning shuxrati. T.: 1991,92-bet.

⁶ Xomidiy.X. Avestodan shohnomagacha. T.: 2007, 114- bet.

⁷ Sulaymonova F. Sharq va g'arb. T.: O'zbekiston. 1997, 27-bet.

ayollarimiz erkaklarga nisbatan ko'proq bog'langandir. Muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Ayol avvalo har bir insonning beshigini tebratadigan, oq suti bilan uning yuragiga odamiylik fazilatlarini singdiradigan uni hayot bo'ronlaridan asrab – avaylaydigan fidoyi insondir".